



"ME'ROJNOMAYI TURKIY" DA AN'ANAVIYLIK VA O'ZIGA XOSLIK

Latipova Saodat A'zamovna,

Buxoro davlat universiteti

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

yo'nalishi magistranti

E-mail: saoatatlatipova43@mail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2025-yil

Jurnal soni: 14

Maqola raqami: 50

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1163>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Qur'oni Karim, hadis, Me'roj kechasi, Me'rojnomalar, "Me'rojnomayi turkiy", jannah va do'zax, farishalar

ANNOTATSIYA

Me'roj islom dinidagi muhim vogelardan biri bo'lib, Payg'ambarimiz Muhammad salollohu alayhi vasallamning Makkadan Quddusga va u yerdan samoga ko'tarilish voqeasidir. Mazkur maqloda Me'roj kechasi bilan bog'liq ilmiy va badiiy asarlар tahliliga tortiladi. Shuningdek, Buxoro adabiyot va san'at muzeysi fondida saqlanayotgan "Me'rojnomayi turkiy" asaridagi ayrim qismalarning joriy yozuvdagagi tabdili va g'oyaviy-badiiy tahlili keltiriladi. Qolaversa, mumtoz adabiyotda yaratilgan ayrim me'rojnomalar, hadislar hamda Me'roj hodisasi keltirilgan ba'zi asarlар haqida ma'lumotlar ham beriladi. Shu bilan birgalikda, Payg'ambarimizning hayot tarzları bilan bog'liq ayrim jihatlarga ham e'tibor qaratiladi.

Kirish. "Me'rojnomayi turkiy" asari turkiy adabiyotning muhim asarlaridan bira bo'lib, unda payg'ambarimiz davrlarida shakllangan diniy, axloqiy qarashlar mujassamlangan. Ushbu asarda an'anaviylik va o'ziga xoslikning uyg'unlashuvi diqqatga sazovordir. Bu borada bir qancha asarlar o'rganilishiga qaramay, yana bir qanchasi o'z tadqiqotchisini kutib turibdi. "Me'rojnomayi turkiy" asari ham shunday asarlar sirasiga kiradi. Asar toshbosma holatida bosilgan. 1914-yilda bosilgan bo'lishiqa qaramay haligacha o'qib o'rganilmagan edi. Ushbu maqloda asarning ba'zi o'rinalarini o'qib, boshqa me'roj ruhida yozilgan asarlar bilan solishtirib sharhlashga harakat qilamiz.

Ma'lumki, me'roj mavzusi turkiy adabiyotda ham bir qancha ijodkorlarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Alisher Navoiy, So'fi Olloyor kabi allomalar bu borada qimmatli fikrlarni berib o'tganlar.

Buxoro davlat muzey-qo'riqxona huzuridagi "Hujjatlar" fondida 23497/ 11 inventar raqami ostida saqlanayotgan "Me'rojnomayi turkiy" asari musulmon adabiyotiga xos tarzda an'anaviy basmala bilan boshlangan. Ya'ni asarning boshlanish qismida "Bismillahir rohmanir Rahim" oyati keltirilgan Kitobning bиринчи sahifasida unvon qismi mavjud bo'lib, chiroylı naqshlar bilan bezalgan. Unvon¹ barcha qo'lyozma va toshbosmalarning bиринчи sahifasida keltiriladi. "Me'rojnomayi turkiy" da ham unvon qismi va matn birgalikda berilganligini ko'rish mumkin.



1-rasm."Me'rojnomayi turkiy"ning basmala qismi

Me'roj hodisasi Islom madaniyatida muhim voqeal sifatida o'rniga ega. Bu hodisa Muhammad salollohu alayhi vasallamning Makka shahridan Quddusga, so'ngra yetti qavat osmonga ko'tarilib, Allah bilan muloqot qilganligi haqidagi rivoyatdir. Me'rojda payg'ambar alayhissalom tarixi bilan bog'liq tun kechasida amalga oshirilgan sayohat tafsif etiladi². Aynan insonyatga buyuk mo'jiza hisoblangan Me'roj kechasi diniy asarlarda ham, diniy manbalardan oziqlanuvchi badiiy adabiyotda ham ta'rif-tafsif etib kelindi. Ayni mavzuda asar yozish an'ana tusiga kirib, arab, fors va turkiy adabiyotda katta

turkumdag - "Me'rojnomayi turkiy"larni yuzaga keltirgan³. Ushbu hodisa turli davrlar va xalqlarda o'ziga xos tarzda tasvirlangan. Turkiy Me'rojnomalar, Alisher Navoiy va So'fi Olloyor asarlarida Me'roj hodisasi o'ziga xos tarzda yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili. Maqloda tilga olingan "Turkiy Me'rojnomayi turkiy" asar bo'lib, Islom madaniyatida keng tarqalgan me'roj rivoyatlariga asoslanadi. Me'roj, ya'ni Payg'ambar Muhammad salollohu alayhi vasallamning Olloh huzuriga ko'tarilishi haqidagi rivoyatlar o'rta asrlarda turli tillarda keng tarqalgan. Ushbu asarda Payg'ambarining osmonga ko'tarilishi va u yerdagi ruhiy tajribalar tasvirlangan:

Muhammadga inoyat qildi Me'roj

O'shal tunda boshig'a qo'yuldi toj

Tushi ershin vahiy ogah edilar

Alarga to'rt malak hamroh edilar

Biri Jabroil va Mikoil erdi

Biri Azroil va Isrofil erdi

Buroq kulturdlar tun uyqusinda

Muhammad erdi ummat qayg'usinda

Kirib Jabroil ul dam qildi bedor

Dedi Haq ko'rsatur bul kecha diydor⁴[Me'rojnomayi turkiy].

(1914)Toshbosma]

"Turkiy me'rojnomayi turkiy"da me'roj hodisasi tunda sodir bo'lgani haqida so'z boradi. Payg'ambarimiz Muhammad salollohu alayhi vasallamga bu borada vahiy kelganligi, u muborak zotga esa to'rt farishta: Jabroil, Mikoil, Azroil, Isrofil hamrohligi ko'rsatiladi. Shuningdek, Buroq ot tasviri ham mavjud. Bu kabi tasvir Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodida ham uchraydi. Navoiyning me'roj peyzajiga o'ta ohistalik xos, u ilohiy mo'jiza tasviriga o'tishdan oldin uning munosib shart-sharoit, muhitda yuz berganini ko'rsatishga e'tibor qaratadi. Nizomiya ham tun tasviri mavjud, ammo u qisqa bo'lib, mo'jizaning qanday muhitda yuz berganini tushuntirishga kamlik qilgan. Nizomiya nima uchundi Buroq tasviri, payg'ambarining unga minib barqdek yetti osmonga ko'tarilishiga katta e'tibor qaratgan. Navoiy esa munosib sharoitni tasvirlagach, payg'ambarining manzilini eslatadi, so'ngra nogoh barq chaqilib, ofoq nurga to'lgani va barqdek uchuvchi Jabroil barqandom ot - Buroqni yetaklab payg'ambar ostonasiga olib kelgani qayd etiladi, ya'ni Navoiy badiiy lavhalarni o'zaro mantiqiy ketma-ketlikda bog'lab boradi. Nizomiya esa Buroqning payg'ambarimiz huzuriga qanday keltirilgani, jarayon qay tarzda sodir bo'lgani, Jabroilning kelgani yoxud kelmagani kabi jihatlar ochiq qoladi. Navoiy esa ayni mana shu bog'lanishlarga e'tibor qaratadi⁵. "Turkiy me'rojnomayi turkiy"da ham "Buroq kulturdlar tun

¹ Ilk sahifaning yugori qismida joylashtiriladigan bezak. Ш.Сирожиддинов. Матншунослик сабоқлари. – Т.: Fan, 2019. – B.85.

² Qobilov U. Nubuvvat haqiqati – badiiy ijod ruhi. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2021. – B. 28.

³ Turdiyev Jahongir Zafariddin o'g'li Turkiy tildagi me'rojnomalarning qiyosiy-matnini tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi. – Т.: 2022. – B.13.

⁴ Me'rojnomayi turkiy.(1914) Toshbosma. Buxoro adabiyot va san'at muzeysi.Inv.23497/11. – B2

⁵ Ismoilov I.(2021)Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni debochasi badiiyati. Oltin bitiglar.Toshkent .(1). – B113

uyqusinda, tarzida berilgan. Asarda Buroq – Muhammad salollohu alayhi vasallamning osmonlarga ko'tarilishida hamroh bo'lgan muhim va sehri hayvon sifatida tasvirlanadi. U Payg'ambarimizning Makka va Quddus orasidagi safarlarida va keyin osmonga ko'tarilishida ulkan rol o'ynagan. Turkiy adabiyotda me'roja oid dastlabki ma'lumotlar Ahmad Yassaviy hikmatlariha ham uchraydi. Aynan hikmatlarda ham Buroq tasvirini ko'rishimiz mumkin:

Ondin so'ngra Buroq, hulla kelturgoylar,
Boshiga toj, hulla, Buroq mindurgoylar,
Taxti behisht uzrasiga qo'ndurg'oylar,
Yig'lab yurgil, ko'z yoshini riyosi yo'q.⁶ [Me'rojnomayi turkiy.

(1914) Toshbosma]

Me'rojnomalarda Buroq ko'pincha chiroyli, oq rangda, parvoz qilishga yaroqli va ba'zi tasvirlarda esa, uning qanotlari ko'rsatiladi. Ko'pincha, Buroqning o'ziga xos xususiyati sifatida uning o'rniqa keltirilgan "goh ot, goho xachir shaklida, oq rangli, bo'yni cho'ziq, quloqlari uzun, oyoqlarida qanoti bo'lgan"⁷, degan ta'riflar ham uchraydi. Buroqning rasmi va tasviri tasavvufiy ifodalar bilan ham boyitildi.

An'anaviy islomiy-tasavvufiy asarlar singari, "Turkiy Me'rojnomasi"da ham Ollohnning buyukligi, Payg'ambarining ulug'vorligi, imyon, taqvo, adolat va axloqiy qadriyatlar haqida fikr yuritiladi.

"Turkiy Me'rojnomasi"ni boshqa tasavvufiy asarlardan ajratib turadigan asosiy xususiyat, uning turkiy tilda yozilgani va turkiy xalqlarning madaniy xususiyatlarni o'zida aks ettirganidir. Asarda turkiy xalqlar o'rtasida keng tarqalgan ibora va obrazlar qo'llangan, bu esa asarning o'ziga xosligini oshirgan. Shuningdek, asarda xalq og'zaki ijodidan olingan obrazlar va ramzlar, turkiy qahramonlik va folklor an'analarini ham ko'zga tashlanadi. Bu jihatlar asarning turkiy madaniyatini o'zida mujassam etganligini ko'rsatadi.

"Turkiy Me'rojnomasi" asarida tasavvufiy tafakkurning turkiy madaniyat bilan uyg'unlashuvi, diniy an'analar va xalq an'analarini birlashuvi aniq sezildi. Bu asar o'rta asrlar turkiy madaniyatining ko'zgusi bo'lib, undagi an'anaviylik va o'ziga xoslikning uyg'unlashuvi uni madaniy va adabiy merosimizning muhim qismi sifatida qadrlashga sabab bo'ladi.

Me'roj hodisasi talqinini turkiy adabiyotda ko'plab ilmiy va badiiy manbalarda uchratish mumkin. Jumladan, Imom Buxoriy hadislardan, Nosiruddin Rabg'uzi, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor kabi ijodkorlarning asarlarida uchratish mumkin.

Imom Buxoriy "Sahih al-Buxoriy"da Me'roj hodisasi haqida bir qancha hadislarni keltirgan. Bu hodisa Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning hayotlaridagi eng muhim voqealardan biri bo'lib, ularning Isro va Me'roj kechasida sodir bo'lgan. Isro hodisasi Payg'ambarimizning Makkadan Quddusgacha Buroq nomli ulovda olib borilgan safarini anglatadi, Me'roj esa samoviy ko'tarilish, ya'ni Alloh huzuriga chiqish voqeasidir.

Imom Buxoriy o'zining hadislar to'plamida ushbu hodisani ifodalovchi hadislarni "Isro" va boshqa tegishli boblar orqali keltirgan. Fikrimiz isboti sifatida "Sahih al-Buxoriy"da keltirilgan ba'zi muhim ma'lumotlarga e'tibor qaratamiz:

1. Isro va Me'roj haqida dalillar

Imom Buxoriy hadislardan Payg'ambarimizning Buroqga minib Quddusga yetkazilgani, u yerda barcha payg'ambarlar bilan uchrashgani va ularga imomlik qilganlari haqida so'z yuritiladi. Keyinchalik, Allohnинг amri bilan samoviy ko'tarilish, ya'ni Me'roj amalga oshirilgan. Aynan bu tasvirdagi ba'zi bir jihatlar (Payg'ambarimizning samoga ko'tarilish tasvirlari, Buroq ot tasviri) "Turkiy Me'rojnomasi" da ham aynan keltirilganligini ko'rishimiz mukin. Bu orqali "Turkiy Me'rojnomasi"ning manbasi sifatida Imom Buxoriy asarini qayd etish lozim.

2. Samoviy ko'tarilish tafsilotlari. Alixonto'ra Sog'uniyning "Tarixi Muhammadiya" asarida ham Me'roj kechasi haqida fikrlar mavjud. Mualif bir o'rinda ushbu faslni Imom Buxoriyning "Sahih Buxoriy" asaridagi hadislardan tarjimasi deb beradi: Endi bu o'rinda haqiqatga muvofiq ravishda, qisqacha qilib Me'roj voqeasini bayon qilib o'tamiz. Bu haqda uzun-qisqa so'zlar yozilgan kitoblar ko'p bo'lsa ham, ammo haqiqati ila yozuvchilar ozdur. Shuning uchun Islom olamida Qur'onin so'ngra ishonimlik kitobimiz «Sahih Buxoriy» so'zlariga qanoat qilib,

aning Me'roj haqida keltirgan hadislarni bu o'rinda tarjima qildim. Alloh o'zi madad berishini so'rayman⁸.

"....Mundan keyin Rasullulohni yana Buroqqa mindirib, Jabroil alayhissalom jilovlarida, nosut olamidin lohut jonibiga, ya'ni yer ustidin osmonga ko'tarildilar. Birinchi osmonga yetdilar. Jabroil alayhissalom eshik saqlovchi farishtaga: «Ochgil», dedi. «Kimdursan, kim bilan kelursan?» deb so'radi. «Jabroildurman, yo'ldoshim Muhammad», dedi. «Aning payg'ambarlik davri keldimu?» deb farishtalar darhol eshik ochdi. Dastlab qarshilariga Odam alayhissalom chiqdilar. «Xush keldingiz, ey aziz farzandim», deb haqlariga duo qildilar. Ul joydin ko'tarilish, ikkinchi osmonga yetdilar. Ul joyda ham yuqoridagidek savol-javoblar bo'ldi. Hazrati Iso, Hazrati Yahyo payg'ambarlarning makonlari shu osmonda edi. Bu zotlar ham qarshi olib, xayr-duoda bo'ldilar. Bundin o'tib, uchinchi osmonga chiqish navbatini yetdi. Yusuf alayhissalomning makon shu osmonda edi. Jabroil alayhissalom eshik qoqdi. Yugorigi savol-javoblar o'tgandin so'ngra eshikni ochdilar. Yusuf alayhissalom qarshi olib, Payg'ambarimizni tabrikadi. So'ngra bu joydin o'tib, to'rtinchi osmon sari yuzlandilar. Bu haqida «Varafa'nahu makanan aliyya» oyati kelgan. Hazrati Idris payg'ambarning maqomlari shu edi. Bunda ham yuqorida o'tgan so'zlardin so'ngra, eshik ochilib, Idris alayhissalom bilan ko'rishdilar. Shundan so'ng beshinchi osmonga ko'tarildilar. Jabroil alayhissalom eshik qoqdi. Savol-javoblar o'tgandan so'ngra eshik ochildi. Horun alayhissalomning joylari shunda edi. Ko'rishgandin so'ng, bundin o'tib, oltinchi osmonga chiqdilar. Muso alayhissalom shu joyda edilar. O'tmish so'zlardin so'ngra eshik ochildi. Muso alayhissalom ta'zim bilan Payg'ambarimizni ko'p oqlişladi. Yana ul joydin Buroq uchib, yettinchi ko'kka yetkuzdi. Ul joyda bobolari Hazrati Ibrohim alayhissalomni ko'rdilar. «Otangiz Ibrohimdur», degan ishorat bo'lib, payg'ambarimiz salom berdilar. Salom javobin qaytargandin so'ngra: «Ey aziz farzandim, xush kelding, qandoq ulug' maqomlarga yetding», deb duo qildilar. Payg'ambarimiz ko'rdilarkim, Ibrohim Halilulloh osmon farishtalarining Ka'basi — «Baytul Ma'mur»ga suyanib o'tiribdilar⁹. Demak, "Sahih Buxoriy"da keltirilgan hadisga ko'ra Payg'ambarimiz har bir osmonдан o'tganlarida turli payg'ambarlar bilan uchrashganlar, ya'ni

Birinchi osmon: Odam alayhissalom bilan uchrashuv.

Ikkinci osmon: Iso va Yahyo alayhissalom bilan uchrashuv.

Uchinchi osmon: Yusuf alayhissalom bilan uchrashuv.

To'rtinchi osmon: Idris alayhissalom bilan uchrashuv.

Beshinchi osmon: Horun alayhissalom bilan uchrashuv.

Oltinchi osmon: Muso alayhissalom bilan uchrashuv.

Yettingchi osmon: Ibrohim alayhissalom bilan uchrashuv.

"Turkiy Me'rojnomasi"da esa yuqorida nomlari keltirilgan payg'ambarlar me'roj tunida emas, asarning boshlanish qismida keltirilgan. Ya'ni ular sanab o'tilib Muhammad alayhi vasallamning ulardan ulug'liklariha urg'u berib o'tilgan:

Alarni avvali Odam safiydur

Muhammad Mustafo hotam nabiydur

Ki Odam anbiyolar sarvaridur

Muhammad barchasini rahbaridur

Oni so'ngida erdi Shish mursal

Muhammad barchasidin erdi Afzal

Jahong'a muttaqi Nuh-i nabiydur

Muhammad barchasini matlabilur

Xudoni do'sti Ibrohim Xalildur

Muhammad asli ahbobi jalildur

Kalimulloh erdi barhaq rasuli

Muhammad jumlani erdi qabuli

Xalilni o'g'li Ismoil Sodiq

Muhammad vasfidur mahbubi sobiq

Agarchi jannati Idris makoni

Muhammad ko'rdi me'roj lomakoni

Payambar erdi ul Ayyubi Sobir

Muhammaddur Abu Toyibi Tohir

Bani Isroi erdi oti Yaqub

Muhammad barchasiga erdi mahbub

Ani o'g'lini oti erdi Yusuf

Muhammadga qilur hular taassuf

Bani Isroi o'g'li erdi Dovud

Muhammad erdilar mahbubi ma'bud

⁶ Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar). T.: Movarounnahr. 2004. - B20
⁷ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Birinchi jild. T.: 2000

⁸ Sog'uniy Alixonto'ra. Tarixi Muhammadiya. - T.: Movarounnahr, 1997. - B51.

⁹ Sog'uniy Alixonto'ra. Tarixi Muhammadiya. - T.: Movarounnahr, 1997. - B51.

Ani o'g'li jahon olgan Sulaymon [Me'rojnomayi turkiy.(1914)

Toshbosma]

Muhammad erdilarkim xos rahmon

Masihulloh ottoni ibni Maryam

Muhammad barchadin erdi mukarram¹⁰[Me'rojnomayi turkiy.

(1914)Toshbosma]

Yuqoridagi misralardan ko'rish mumkinki, "Turkiy

Me'rojnomadagi Muhammad salollohu alayhi vasallam tasvirlari ifodasi So'fi Olloyor ijodiga yaqin:

Sanovu hamd qudratlig' Xudoga

Ki iymon keltiribmiz anbiyog'a

Alarning avallikim Odam erdi,

Muhammad barchasig'a xotam erdi.

Barisi tangrini suyg'on qulidir

Barisi jannati rizvon gulidir¹¹..[Me'rojnomayi turkiy.

(1914)Toshbosma]

3. Allohnning huzurida bo'lish va namoz farz qilinishi

Imom Buxoriy hadislariga ko'ra, Me'rojda Payg'ambarimiz Alloh huzuriga ko'tarilib, 50 vaqt namoz farz qilinadi. Keyinchalik, Muso alayhissalomning maslahatlari bilan ushbu namozlar soni qisqartilib, 5 vaqt qilib belgilangan.

"Turkiy Me'rojnomadagi esa bunday tasvir mavjud emas. Unda Muhammad alayhissalomning Olloh billan uchrashuvlari keltirilgan-u, lekin namozga oid Me'rojnomalarda berilgan voqealar bayon etilmagan. Bu asar ayini xarakterdagi asarlardan farqli ravishda Janobi Rasulning Haq bilan ota va onalaridan erta qolganliklari, yetimlikning azoblarli, ota-onasiz bolalarga qanchalik qiyinligi haqida suhbatalashganliklari tasviriga ham egadir:

Ey Karimo, aytayin tug'onda ul otam qani?

Siyasiga jo qilib emchak berur onam qani?

Qo'llariga ko'torib olib desa bolam qani?

Koshki biri ketib qolsa, biri ul ham qani?

Bu yetimlikdin yana ko'ksim yara keltumisham.

Bu yetimlikda yana kuykon kimarsa bormikan?

Ham yetimliqqa taqobil hech nimarsa bormikan?

Ikki dunyoni g'ami bundog' nimarsa bormikan? [Me'rojnomayi turkiy.(1914) Toshbosma]

Ushbu tasvirlarni esa yana bir bor "Turkiy Me'rojnomadagi asarining o'ziga xos jihatni sifatida qayd etish mumkin. Baytlar Payg'ambarimizning yetimlik dardlarini va bunday ahvoldagi yetimlarning boshiga tushadigan azoblarini Allohga izhor qilganini ko'rsatadi. Munojot shu ohangda davom etadi:

Oh, yetimlik dardidin qatig' nimarsa bormikan?

Ushbu g'amin jon berurdek g'arg'ara keltumisham.

O'z taning borub yugur deb onasini oldiga,

Jon bolam deb sevinib olgay ko'tarib yoniga

Ichiga qonlar yutub, yetimlar urgay yoniga

Tarbiyat kimlar qilur kimlar qaroydir holiga,

Ko'zlarimni yoshini chun shira-shira keltumisham.

Ey Xudoyo, hech o'g'lon otasi o'lmasin

Ustiga mendek bo'lub yana onasi o'lmasin

Qaya borurni bilmay ko'chalarda yurmasin

Hech odamni bolasini bu kuyiga solmasin

Xizmatingga bu erur tahaffum mana keltumisham

Man qiyos oldim o'zimdin kim yetimlar holini

O'tkarur g'am-g'ussa birlan muncha mohi solini

Kimga tushsha yeb yuborurlar yetimlar molini

Hech kimarsa o'ylamas yetimlarning ubolini

[Me'rojnomayi turkiy. (1914)Toshbosma]

Ushbu misralarda ota-onasidan ayrilgan yetim bolaning holati, uning ichki iztiroblari, yomon kunlarda ota va onaning yo'qligi, bolaning kimga borishni bilmay, ko'chalarda sarson yurishi tasvirlanadi. Bu tasvirlar orqali yetimlikning inson hayotiga qanchalar qattiq ta'sir qilishi ko'rsatiladi. Shu bilan birga, bu misralarda Allohga bo'lgan munojotni ham ko'rishimiz mumkin. Muhammad salollohu alayhi vasallamning Allohga qilgan arizasida yetimlik azoblarini va ummatlari uchun iltijolari bayon etiladi. Bu baytlarda Allohdan yetimlarga rahmat, marhamat so'rash, ularning holiga yordam berish iltijolari mavjud. Payg'ambarimizning dardlari orqali Allohdan inoyat va rahmat so'raladi:

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati.

Dunyoda ko'rsang, yetimlar barchadin munglug' erur

Xor o'fur yetim agarchi sajralik tug'lug' erur

Hazrating'a hasratimni ozg'ina keltumisham

Ul yetim bo'lgan kimarsa angla Payg'ambar erdi

Ul dam yetimlik dardini me'roj tuni Haqqqa dedi

Bu yetimlik sharbatini ichdi odam sayyidi

Sen bilan menga bu ishni ibrat olsun deb aytdi

Men qazosig'a rizo bermakka tan keltumisham

Mundayin arzin dedi Me'roj tuni Haqqqa Rasul

[Me'rojnomayi turkiy. (1914)Toshbosma]

Ushbu baytlarning zamirida insonning ichki dunyosi va Alloha bo'lgan muhabbatni, taqdir mashaqqatlarini sabr va qanoat bilan qabul qilish bilan bog'liq badiiy mushohadalar mavjud. Payg'ambarimizning yetimlik azoblarini Alloha aytib, bu dunyodagi barcha musibat va sinovlarni sabr bilan qabul qilish lozimligi tasvirlanadi. Shu bilan birgalikda, ushbu baytlarda yetimlarning og'ir ahvoli ifoda etilishi bilan birga, ularga nisbatan jamiyatning mehribon bo'lishi kerakligi urg'ulanadi. Payg'ambarimizning Alloha qilgan arizalari orqali yetimlarning holiga e'tibor qaratish, ularga mehr-muruvvat ko'rsatish va ularning huquqlarini himoya qilishga chaqiradi. Buning isbotini esa yetimlar haqida keltirilgan bir qancha sahif hadislarda ham ko'rishimiz mumkin.

Natijalar. Tadqiqot davomida "Turkiy me'rojnomadagi asarining adabiyotshunoslik va tarixiy-madaniy jihatlari bo'yicha muhim ma'lumotlarga erishildi. Tadqiq etilgan asarlar orasida til, imlo va mazmun jihatdan ayrim farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Qur'on oyatlari va hadislar bilan yaqin aloqasi kuzatilib, bu asarning diniy-didaktik maqsadda yozilganini tasdiqladi.

Asar an'anaviy me'rojnomada janriga oid bo'lib, unda Muhammad salollohu alayhi vasallamning me'roj safarlarini tasvirlovchi hikoya usulidan foydalanilgan. Shu bilan bir qatorda payg'ambarimizning vafotlari, qizlari Fotima raziyallohu anho va kuyovlari Ali haqida ham asarning so'ngida ma'lumot berib o'tilgan. Manba turkiy tilda yozilgan bo'lishiqa qaramay unda arabcha va forscha so'zlar ham talaygina.Toshbosmada morfolistik qo'shimchalarining o'ziga xos ko'rinishi qo'llanilgan. Asarning tili va uslubi Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy va So'fi Olloyor asarlariga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Muhokama. Tadqiqot davomida shu narsa aniqlandiki, Me'rojnomadagi asarlar faqat bitta muallifga tegishli emas, balki turli davrlarda yozilgan turli qo'lyozma va toshbosmalarning to'plamidir. Bizning qo'limizdagidagi manba esa yuqorida aytganimizdek, 1914-yilda toshbosmada usulida ko'chirilgan. Qo'lyozma va toshbosmalar bir-biridan uslub va imlo jihatidan farqlanishi mumkin. Asar islomiy ta'lidotdan tashqari , tasavvufiy qarashlar bilan ham bog'liq. Matnda Qur'onдан tashqari xalqona tasavvufiy motivlari ham uchraydi. Bu esa uning an'anaviy diniy me'rojnomadagi asarlaridan farqli turkiy madaniyat bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

"Me'rojnomayi turkiy"ning lug'at tarkibini o'rganish barobarida bu tarkib orqali turkiy tilning rivojanishi haqida ma'lumot olish mumkin degan xulosaga keldik. Chunki unda gaplarning qurilish tizimi va qo'shimchalarining qo'llanishi o'ziga xos.

Bundan tashqari bunday asarlar islam dini tarixi va me'roj haqidagi rivojatlar bilan bog'liq bo'lgani uchun uni diniy ta'lim tizimida qo'llash mumkin.Asarning til, janr va uslubiy xususiyatlari eski turkiy adabiyotning rivojanish bosqichlarini o'rganish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Buxoro davlat muzeysi-qo'riqxona huzuridagi "Hujjatlar" fondida saqlanayotgan "Me'rojnomayi turkiy" asarining an'anaviy jihatlari bilan bir qatorda o'ziga xos jihatlari ham talaygina. Asar she'riy shaklda yozilgan bo'lsa-da, sarlavhalari nasrda berilgan. Asar "Me'rojnomayi turkiy" deb nomlangani holda faqat me'roj hodisasi bilan cheklanib qolinmagan. Unda Rasulolloh salollohu alayhi vasallamning vafotlari hamda Fotimay Zahro raziyallohu anhoning otalari bilan so'zlashganlari, ularning Fotimaga pand-nasihat qilganlari va vafotlari haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan. Shuningdek, Hazrati Alining Fotimaga va o'g'llariga naqadar mehribonliklarini ham ko'rish mumkin.

¹⁰ Me'rojnomayi turkiy. (1914) Buxoro adabiyot va san'at muzeysi.Inv.23497/11. – B.3

¹¹ So'fi Olloyor. Sabot ul ojizin. T.: –Mehnat, 1991. – B.16.

1. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (Yangi topilgan namunalar). T.:Mavarounnahr. 2004.
1. .Imom Buxoriy. Al jome as-sahih. I jild. – T.:Qomuslar, 1991.
2. Imomi A'zam Abu Hanifa.Musnad. – T.: Hilol, 2014.
3. Lison ut-tayr (nasriy bayoni bilan). Tahrir hay'ati: A.Qayumov va boshq. – T.: Adabiyot va san'at,1991.
4. Me'rojnomayi turkiy. Buxoro adabiyot va san'at muzeyi. – T.: G'ulomiya.1914. Inv.23497/11
5. Sog'uniy Alixonto'ra. Tarixi Muhammadiy. – T.: Mavarounnahr, 1997.
6. So'fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. T.: Mehnat. 1991:
7. Sirojiddinov Sh,Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun.2019.
8. Turdiyev Jahongir Zafariddin o'g'li Turkiy tildagi me'rojnomalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi. T.: 2022.
9. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi va tafsiri /Tarjima va tafsir muallifi:Shayx Abdulaziz Mansur. T: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti matbaa birlashmasi. 2012.
10. O'zbekiston musulmonlari idorasи Samarqand viloyati vakilligi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning qisqacha tarixlari va ahli baytlari.11.12.2017. www.islamonline.uz
11. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.Birinchi jild.T.:2000